

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘zbekiston Respublikasi**

**Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari  
hamda byudjet tashkilotlarining moliya-hisob  
bo‘linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta  
tayyorlash**

**O‘quv markazi direktori**

**I. Xamidova**

**2022-y.**

**“MOLIYACHI MA’LUMOTNOMASI” BYULLETENINING  
2022-YIL 1-12-SONLARINI OYMA-OY CHOP ETISH BO‘YICHA**

## **TANLASH HUJJATLARI**

**Buyurtmachi: O‘zbekiston Respublikasi  
Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari  
hamda byudjet tashkilotlarining moliya-hisob  
bo‘linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta  
tayyorlash  
O‘quv markazi**

## MUNDARIJA

### **I bo‘lim. Tanlashda ishtirok etuvchilar uchun umumiy qo‘llanma.**

#### **Tanlash ishtirokchisidan so‘raladigan hujjatlar ro‘yxati va shakllari**

1-shakl. Kafolat xati

2-shakl. Tanlash ishtirokchisi to‘g‘risida umumiy ma‘lumot

3-shakl. Tanlash ishtirokchisining texnik va moddiy resurslari mavjudligi to‘g‘risida ma‘lumot

4-shakl. Texnik taklifi

-Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan va tasdiqlangan so‘ngi 2 yillik moliyaviy hisobotlarni nusxalari ilova qilinishi shart (*Buxgalteriya balansi 1-sonli shakl, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot 2-sonli shakl va debitor va kreditor qarzdorliklar to‘g‘risidagi ma‘lumot*).

-Tanlash ishtirokchisining guvohnoma va litsenziya nusxalari;

-Tanlash ishtirokchisi bo‘lgan yuridik shaxsning ta‘sischilari va ular ta‘sischiligidagi boshqa yuridik shaxslar mavjud bo‘lsa, ular to‘g‘risidagi tasdiqlangan ma‘lumotlar.

-Zarur bo‘lganda Buyurtmachi qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa hujjatlarni va ma‘lumotlarni so‘rashga haqli.

- Korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza

### **II bo‘lim. Ishtirokchining tanlash taklifini baholash mezonlari**

### **III bo‘lim. Texnik qismi**

### **IV bo‘lim. Shartnoma loyihasi**

## I bo‘lim. Tanlashda ishtirok etuvchilar uchun umumiy qo‘llanma.

<b>1. Umumiy tavsif.</b>	<p>1.1. Ushbu tanlash hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining 22-aprel 2021-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘RQ-684-son “Davlat xaridlari to‘g‘risida” qonun talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.</p> <p>1.2. Tanlash maqsadi: “Moliyachi ma’lumotnomasi” byulletenining 2022-yil 1–12-sonlarini oyma-oy chop etish.</p> <p>1.3. Mazkur xizmat bo‘yicha moliyaviy manbalarning boshlang‘ich qiymati qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) bilan 1 032 000 000 (Bir milliard o‘ttiz ikki million) so‘m. Mazkur tanlash bo‘yicha xarid predmeti umumiy miqdori 51 600 (Ellik bir ming olti yuz) dona va bir birligi uchun boshlang‘ich narxi 20 000 (yigirma ming) so‘m maxsus axborot portalidagi e’londa keltirilgan.</p> <p>1.4 Buyurtmachi tomonidan tanlashga taklif etilgan narxdan tanlashda ishtirok etuvchining taklif etgan narxi oshib ketmasligi kerak.</p> <p>1.5. Xizmat ko‘rsatishning texnik topshirig‘i tanlash hujjatlarining texnik qismida aks ettirilgan.</p> <p>1.6. Tanlash taklifini rasmiylashtirish shakli <a href="http://www.etender.uzex.uz">www.etender.uzex.uz</a> sayti orqali elektron tartibda amalga oshiriladi.</p> <p>1.7. Tanlash hujjatlari qoidalarini izohlash uchun so‘rovlar e’lon chop etilgan sanadan boshlab buyurtmachiga takliflar berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin yuborilishi mumkin. Buyurtmachi so‘rov kelib tushgan sanadan e’tiboran ikki ish kuni ichida ushbu so‘rovga javob yuboradi.</p> <p>1.8. Takliflar berish tugagan paytdan e’tiboran 10 kun muddatda xarid komissiyasining ish reglamentida ko‘rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan (eng yuqori ball to‘plagan) tanlash ishtirokchisi g‘olib deb topiladi</p> <p>1.9. Foydalaniladigan valyuta: O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi «So‘m».</p> <p>1.10. To‘lov shartlari: Pul o‘tkazish yo‘li bilan. Shartnoma qiymatining 30% oldindan, qolgan 70% shartnoma shartlariga muvofiq buyurtmaning bajarilgan qismi uchun hisobvaraqa-fakturaga asosan amalga oshiriladi.</p>
<b>2. Tanlash tashkilotchisi</b>	<p>2.1 Tanlashda “Buyurtmachi” sifatida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari hamda byudjet tashkilotlarining moliya-hisob bo‘linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash O‘quv markazi ishtirok etadi.</p>

	<p>Manzil: Toshkent sh. Mirzo Ulug‘bek tumani, Darxontepa 7          Telefon: 71 239-19-18, Indeks: 100052          Sh/x: 400110860262667096200092001          MFO 00014 STIR 300529638 OKED 85590:          Moliya vazirligi G‘aznachiligi          X/r: 23402000300100001010          XKKM Markaziy bank Toshkent sh.,          Bosh boshqarmasi          MFO: 00014, STIR: 201122919,          2.2. Tashkilotchining aloqa raqamlari:          Yuldashev Nuriddin Zuxriddinovich tel: 99 899 855-38-38          2.3. Tanlash “Buyurtmachi” ko‘rsatmasiga asosan tashkil etilgan xarid komissiyasi tomonidan 7 (yetti) kishidan iborat guruh a’zolari ishtirokida onlayn amalga oshiriladi.</p>
<p><b>3. Tanlash ishtirokchilari</b></p>	<p>3.1. Mazkur tanlashda, jurnallarni chop etish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kamida 3 yillik tajribaga ega yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganligini tasdiqlovchi guvohnoma va chop etishga ruxsat beradigan litsenziya (guvohnoma) hamda chop etish uskunalari mavjud bo‘lgan barcha yuridik shaxslar ishtirok etishlari mumkin</p> <p>3.2. Ishtirokchilar mazkur tanlash hujjatlarida taqdim etilishi shart bo‘lgan ma’lumotlar va tijorat takliflarini davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalini <a href="http://www.etender.uzex.uz">www.etender.uzex.uz</a> sayti orqali elektron ko‘rinishda yuboradi.</p> <p>3.3 Tanlash ishtirokchisi:</p> <p>a) Taqdim etilgan hujjat va ma’lumotlar uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi;</p> <p>b) Tanlashga bitta taklifni taqdim etish huquqiga ega;</p> <p>v) Mazkur tanlashda, ta’sischiligidagi bir qancha yuridik shaxslari mavjud bo‘lgan ishtirokchilarning faqat bitta yuridik shaxsi ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, mazkur tanlashda (lotda) benefitsiar mulkdorlar, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining affillangan shaxslari, aka-uka va yaqin qarindoshlarning yuridik shaxslar ishtirok etish huquqiga ega emas.</p> <p>3.4. Tanlashda qatnashish uchun tanlash ishtirokchisi quyidagilarni amalga oshirishi lozim;</p> <p>a) Tanlash shartlari bilan tanishish maqsadida “Buyurtmachi”ning mahsus ma’lumotlar portaliga joylashtirilgan tanlash hujjatlarining elektron shaklini yuklab olish hamda tanlash hujjatlari, texnik topshiriq va shartnoma praformasi bilan yaqindan tanishib chiqishi lozim.</p> <p>b) Mazkur tanlash hujjatlarining 7-qismi <b>“Tanlash ishtirokchisiga qo‘yiladigan talablar va tanlashda ishtirok</b></p>

	<p><b>etish uchun takliflar bo'yicha hujjatlarni taqdim etish tartibi.”</b> talablariga asosan tanlash takliflarini taqdim etishi shart.</p> <p>3.5. Tanlashda quyidagi yuridik shaxslar ishtirok etishga ruxsat berilmaydi:</p> <p>a) Faoliyati tugatilishi arafasidagi yuridik shaxslar;</p> <p>b) Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud yuridik shaxslar;</p> <p>v) Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilgan yuridik shaxslar.</p> <p>3.6 Buyurtmachi, quyidagi holatlarga ko'ra ishtirokchilarni tanlashda qatnashishdan chetlashtiradi:</p> <p>a) Tanlash ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'RBQ-684-son "Davlat xaridlari to'g'risida" qonun talablariga va boshqa qonun va qonun osti hujjatlariga mos kelmasa;</p> <p>b) Taraflar o'rtasida O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun hujjatlari talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirsa, shu jumladan, pora berishni taklif qilsa, va'da bersa, tovlamachilik qilsa va boshqa korrupsion holatlar amalga oshirsa;</p> <p>v) Tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim qilingan hujjatlar soxta ekanligi aniqlansa hamda ta'sischi ligida bir qancha yuridik shaxslari mavjud bo'lib, ulardan bir nechtasi ishtirok etishi, shuningdek, mazkur tanlashda (lotda) benefitsiar mulkdorlar, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining affillangan shaxslari, aka-uka va yaqin qarindoshlarning yuridik shaxslari ishtirok etish holatlari aniqlansa xarid komissiyasi mazkur takliflarni ko'rib chiqmaydi.</p>
<p><b>4. Tanlash o'tkazish tartibi</b></p>	<p>4.1. Tanlash 2 (ikki) bosqichda amalga oshiriladi:</p> <p>a) "Buyurtmachi" talablariga binoan, Xarid komissiyasi tomonidan tanlash ishtirokchilarining taqdim etgan hujjatlarini baholash (yuqori ball-80); Mazkur baholash bo'yicha ishtirokchilar kamida 60 ball olganda, keyingi bosqichga o'tadi.</p> <p>b) Tanlash talabiga ko'ra elektron tizim tomonidan taklif etilgan narxni aniqlash va solishtirish hamda baholash (yuqori ball-20);</p>
<p><b>5. Tanlashni o'tkazish muddati</b></p>	<p>5.1. Tanlash taklifi e'lon qilingan sanadan boshlab 5 ish kuni davomida soat 9:00 dan 18:00 gacha (oxirgi kun maxsus axborot portalidagi e'londa ko'rsatilgan vaqtgacha) davom etadi.</p> <p>5.2. Tanlash muddati tugagandan so'ng ishtirokchilar tomonidan taqdim qilingan hujjatlarni komissiya a'zolari 10 kun muddat ichida o'rganib chiqadi.</p>

<p><b>6. Komissiya tomonidan baholash mezonlari va tartibi.</b></p>	<p>6.1 O‘zbekiston Respublikasining 22-aprel 2021-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘RQ–684-son “Davlat xaridlari to‘g‘risida” qonun talablariga muvofiq amalga oshiriladi.</p> <p>6.2. Tanlash hujjatlarini II bo‘limi “Ishtirokchining tanlash taklifini baholash mezonlari” ga asosan baholanadi.</p>
<p><b>7. Tanlash ishtirokchisiga qo‘yiladigan talablar va tanlashda ishtirok etish uchun takliflar bo‘yicha hujjatlarni taqdim etish tartibi.</b></p>	<p>7.1. Mazkur tanlashda, jurnallarni chop etish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kamida 3 yillik tajribaga ega yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tganligini tasdiqlovchi guvohnoma va chop etishga ruxsat beradigan litsenziya (guvohnoma) hamda chop etish uskunalari mavjud bo‘lgan barcha yuridik shaxslar ishtirok etishlari mumkin.</p> <p>Tanlash ishtirokchisining muhri bilan tasdiqlangan guvohnoma va litsenziya nusxalari (<a href="https://etender.uzex.uz">https://etender.uzex.uz</a>) maxsus platformaga joylashtiriladi;</p> <p>7.2. Tanlash ishtirokchisi bo‘lgan yuridik shaxsning ta‘sischilari va ular ta‘sischiligidagi boshqa yuridik shaxslar mavjud bo‘lsa, ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tasdiqlagan holda hamda maxsus bazalardan olib taqdim etish zarur.</p> <p>7.3. Tanlash ishtirokchisiga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi, insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi va avval imzolangan shartnomalar bo‘yicha o‘z muddatida bajarilmagan, kelishilgan majburiyatlarni mavjud emasligi to‘g‘risida kafolat xati hamda maxsus bazalardan olingan ma‘lumotlarni taqdim etishi zarur.</p> <p>7.4. Tanlash ishtirokchisining byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalar oldidagi qarzdorligi mavjud emasligi to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma bo‘lishi zarur. Mazkur ma‘lumotnoma davlat soliq inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi yoki maxsus bazalardan olingan bo‘lishi shart.</p> <p>7.5. Tanlash ishtirokchisining hisobidagi qoldiq mablag‘lari to‘g‘risida hizmat ko‘rsatayotgan bank tomonidan tasdiqlangan ma‘lumotnoma bo‘lishi zarur.</p> <p>7.6. Tanlash ishtirokchisi to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar bo‘lishi shart.</p> <p>7.7. Tanlash ishtirokchisining texnik va moddiy resurslarining mavjudligi to‘g‘risida ma‘lumot (3-shakl);</p> <p>7.8. Tanlash ishtirokchisining oxirgi ikki yildagi yillik moliyaviy hisobotlarining nusxalari bo‘lishi zarur. Bunda: moliyaviy hisobotlar (<i>Buxgalteriya balans 1-sonli shakl, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot 2-sonli shakl va debitor va kreditor qarzdorliklar to‘g‘risidagi ma‘lumot</i>) rahbar va bosh hisobchi tomonidan imzolangan hamda davlat soliq inspeksiyasi tomonidan qabul qilingan bo‘lishi shart.</p> <p>7.9. Tanlash ishtirokchisining texnik taklifi (4-shakl).</p>

	<p>7.10. Tanlash ishtirokchilari tomonidan korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza taqdim etish majburiydir (1-shakl)</p> <p>7.11. Tanlash ishtirokchisi tomonidan shartnoma praformasidagi shartlarga muvofiq buyurtmatni o‘z vaqtida bajarishi hamda ko‘rsatilgan manzilga yetkazib berish to‘g‘risida kafolat xati</p>
<p><b>8. Tanlash g‘olibini aniqlash va Shartnomani rasmiylashtirish tartibi.</b></p>	<p>8.1 Takliflarni taqqoslash natijalariga ko‘ra xarid komissiyasi tanlash g‘olibini aniqlaydi va tanlash o‘tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi.</p> <p>Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to‘plagan bo‘lsa (ball usulidan foydalanganda) yoki bir xil narx taklif qilgan bo‘lsa (eng past narx usulidan foydalanganda), tanlov taklifini barchadan oldin joylashtirgan ishtirokchi g‘olib deb topiladi.</p> <p>Xarid komissiyasining qarori bilan tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko‘rsatilgan mezonlarga muvofiq g‘olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi sifatida e‘tirof etilgan zaxiradagi g‘olib aniqlanishi mumkin.</p> <p>Bayonnomada rasmiylashtirilgan kunda davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtiriladi.</p> <p>Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o‘tkazish natijalari bo‘yicha e‘tirozlar kelib tushmagan bo‘lsa, buyurtmachi va xarid komissiyasi tomonidan g‘olib deb topilgan ishtirokchi o‘rtasida shartnoma tuziladi.</p> <p>8.2. Tanlash natijalari bo‘yicha tuzilgan shartnoma to‘g‘risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.</p>

## Tanlash ishtirokchisidan so'raladigan hujjatlar ro'yxati va shakllari

1-SHAKL

### ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ \_\_\_\_\_

Sana \_\_\_\_\_

**Xarid komissiyasiga**

### **KAFOLAT XATI**

Ushbu xat orqali \_\_\_\_\_ ga nisbatan:

*(tanlash ishtirokchisining to'liq nomi)*

- joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligini;  
- insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligini;  
- avval imzolangan shartnomalar bo'yicha o'z muddatida bajarilmagan kelishilgan majburiyatlarni mavjud emasligiga va Xarid komissiyasiga taqdim etilayotgan hujjatlarni to'g'riligiga kafolat beramiz va tegishli hujjatlarni ilova qilamiz.

Shuningdek, tayyor bo'lgan mahsulotlarni shartnomada belgilangan manzil (joy)ga 1 kun muddat ichida yetkazib berishni kafolatlaymiz.

Imzolar:

Rahbar (F.I.Sh.) \_\_\_\_\_

Bosh buxgalter (moliya bo'limi boshlig'i) (F.I.Sh.) \_\_\_\_\_

Yurist (F.I.Sh.) \_\_\_\_\_

M.O'.

**(ilovalarning barcha betlari topshirilayotganda tanlash ishtirokchilari tomonidan imzolangan va muhrlangan bo'lishi shart)**



## ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ \_\_\_\_\_

Sana \_\_\_\_\_

## TANLASH ISHTIROKCHISI TO'G'RISIDA UMUMIY MA'LUMOT

Yuridik shaxsning to'liq nomi: \_\_\_\_\_

Tashkiliy-huquqiy shakli: \_\_\_\_\_

Registratsiya haqida ma'lumot (sanasi, raqami, organ nomi): \_\_\_\_\_

Yuridik manzili: \_\_\_\_\_

Bog'lanish uchun telefon, faks, e-mail: \_\_\_\_\_

To'liq bank rekvizitlari: \_\_\_\_\_

Faoliyatning asosiy yo'nalishlari: \_\_\_\_\_

Doimiy va vaqtinchalik ishlovchi xodimlari umumiy soni: \_\_\_\_\_,  
jumladan:

Doimiy ishlovchi xodimlar (jami): \_\_\_\_\_

Vaqtinchalik ishlovchi xodimlar (jami): \_\_\_\_\_

**Tanlash ishtirokchisining tajribalari to'g'risida ma'lumot**

Tanlashga qo'yilgan mahsulotlarga o'xshash mahsulotlarni ishlab chiqarganligi to'g'risida ma'lumot:

T.r.	Mahsulot nomi	Buyurtmachining nomi, manzili va bog'lanish uchun axborot	Bajarish sanasi	Izoh
1.				
2.				

\_\_\_\_\_  
(Rahbar yoki imzolash vakolatiga egalik qiluvchining imzosi)\_\_\_\_\_  
(Imzolash vakolatiga egalik qiluvchining F.I.Sh. va lavozimi)

M.O'.

**(ilovalarning barcha betlari topshirilayotganda tanlash ishtirokchilari tomonidan imzolangan va muhrlangan bo'lishi shart)**

## ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ \_\_\_\_\_

Sana \_\_\_\_\_

Tanlash ishtirokchisining texnik va moddiy resurslarining mavjudligi  
to'g'risida ma'lumot

Tanlash ishtirokchisining nomi: \_\_\_\_\_

**“Moliyachi ma'lumotnomasi” byulletenining 2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etishda foydalaniladigan matbaa uskunalari**

T.r.	Matbaa texnikasining nomi	Soni	Ishlab chiqarilgan sanasi/joyi	Sotib olingan sana
1				
2				
3				

**Izoh:** “Moliyachi ma'lumotnomasi” byulletenining 2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etishda foydalaniladigan har bir matbaa uskunalar ro'yxati ko'rsatilishi lozim.

**Taklif qilinayotgan mahsulotni tayyorlash uchun moddiy resurslari**

T.r.	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			

**Izoh:** “Moliyachi ma'lumotnomasi” byulletenining 2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etishda ishlatiladigan har bir xomashyo materiallarini nomi ko'rsatilishi lozim.

\_\_\_\_\_  
(Rahbar yoki imzolash vakolatiga egalik qiluvchining imzosi)

\_\_\_\_\_  
(Imzolash vakolatiga egalik qiluvchining F.I.Sh. va lavozimi)

M.O'.

**(ilovalarning barcha betlari topshirilayotganda tanlash ishtirokchilari tomonidan imzolangan va muhrlangan bo'lishi shart)**

## ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ \_\_\_\_\_

Sana \_\_\_\_\_

## Xarid komissiyasiga

**“Moliyachi ma’lumotnomasi” byulletenining 2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etish bo‘yicha**

**TEXNIK TAKLIFI**

Biz quyida imzo chekuvchilar, *(tanlash ishtirokchisining to‘liq nomi)* \_\_\_\_\_ shu haqda ma’lum qilamizki, maxsus axborot portalida joylashtirilgan \_\_\_\_\_-sonli lotdagi “Moliyachi ma’lumotnomasi” byulletenining 2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etish bo‘yicha tanlash hujjatlarini va \_\_\_\_\_-sonli so‘rovlarimizga (*yozma so‘rovlar va ularga javoblar mavjud bo‘lganda raqamini ko‘rsating*) yozma javoblarini o‘rganib chiqib, “Moliyachi ma’lumotnomasi” byulletenining 2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etib berishni taklif etamiz.

Tanlash g‘olibi bilan tuziladigan shartnoma bo‘yicha ushbu texnik taklifiga muvofiq ishlarni bajarish majburiyatini olamiz.

Biz, tanlash takliflarni qabul qilish tugatilgan kundan boshlab 2022-yilning 31-dekabrigacha ushbu tanlash taklifi shartlariga rioya etishga rozilik bildiramiz. Ushbu tanlash taklifi biz uchun majburiy bo‘lib qoladi va ko‘rsatilgan muddat o‘tgunga qadar belgilangan vaqtda qabul qilinishi mumkin.

Ilova: Bajariladigan ishlar texnik tavsif jadvali

\_\_\_\_\_  
(Rahbar yoki imzolash vakolatiga egalik qiluvchining imzosi)

\_\_\_\_\_  
(Imzolash vakolatiga egalik qiluvchining F.I.Sh. va lavozimi)  
M.O‘.

**(ilovalarning barcha betlari topshirilayotganda tanlash ishtirokchilari tomonidan imzolangan va muhrlangan bo‘lishi shart)**

### Bajariladigan ishlar texnik tavsif jadvali

#### 1. Ishtirokchi (to'liq nomi) taklif etadi:

t/r	Nashr nomi	Nashr turi	Hajmi (bet)	Adadi	Muqova	Matn rangi	Bichimi	Izoh (mos/mos emas)
1								
2								

2. Hajmi 96 bet, 60x84 <sup>1</sup>/<sub>8</sub> bichimdagi “Moliyachi ma'lumotnomasi” byulletenining 2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etishda matbaa standartlari asosida chop etish, sahifalardagi jadval, chizma, rasm va illyustratsiyalarning chop etishda ranglar jilosini kamida belgilangan talab asosida chop etish, matn rang 4+4, nashrni ichki matn qismini chop etishda 80 gr/m<sup>2</sup>dan kam bo'lmagan ofset qog'ozi, PNL laminatsiya muqova rangi 4+4 hamda muqova uchun 200 gr/m<sup>2</sup>dan kam bo'lmagan silliqlangan (melovannaya) qog'ozidan foydalaniladi.

3. Yetkazib beriladigan mahsulotlar sifati amaldagi Davlat standarti talabiga va texnik shartlarda nazarda tutilgan me'yorlarga javob berilishini kafolatlaydi.

4. Bajariladigan ishlarni to'liq hajmda shartnomada belgilangan muddatda bajaradi.

5. Ish davomida yoki qabul qilish-topshirish jarayonida aniqlangan kamchiliklar ishtirokchi tomonidan o'z hisobidan bartaraf etiladi.

6. Bajarilgan ishlar ikki tomonlama imzolangan topshirish-qabul qilish dalolatnoma asosida qabul qilinadi.

\_\_\_\_\_  
(Rahbar yoki imzolash vakolatiga egalik qiluvchining imzosi)

\_\_\_\_\_  
(Imzolash vakolatiga egalik qiluvchining F.I.Sh. va lavozimi)

M.O'.

Sana: “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2022-y.

**(ilovalarning barcha betlari topshirilayotganda tanlash ishtirokchilari tomonidan imzolangan va muhrlangan bo'lishi shart)**

**II bo‘lim. Ishtirokchining tanlash taklifini baholash mezonlari**  
(quyidagi mezonlar bo‘yicha so‘ralgan barcha ma’lumotlar platformaga yuklanishi zarur)

**1. Texnik va umumiy ma’lumotlar bo‘yicha ishtirokchilarga qo‘yilgan talablarga mosligini baholash**

<b>T/r</b>	<b>Mezon</b>	<b>Ball</b>	<b>Talab qilinadigan va platformaga yuklanadigan ma’lumotlar</b>
1.	Guvohnoma yoki litsenziyaning mavjudligi hamda jurnallarni chop etish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kamida 3 yillik tajribaga egaligi	0-5	Guvohnoma va litsenziyani tasdiqlangan nusxalari,
2.	Tanlash ishtirokchisi bo‘lgan yuridik shaxsning ta’sischi va ular ta’sischi bo‘lgan yuridik shaxslar mavjud bo‘lsa, ular to‘g‘risidagi tasdiqlangan ma’lumotlarni mavjudligi hamda maxsus bazalardan olinganligi	0-5	Mezonda so‘ralgan ma’lumotlar
3.	Avval imzolangan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarini bajarish holati bo‘yicha tasdiqlangan ma’lumotlarni mavjudligi	0-5	Avval bajarilgan ishlar xususida byurtmachi tashkilotlar tomonidan berilgan ma’lumotnoma va xulosalar
4.	Tanlash ishtirokchisiga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi to‘g‘risidagi tasdiqlangan ma’lumotlarni mavjudligi. Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi to‘g‘risidagi tasdiqlangan ma’lumotlarni mavjudligi	0-5	Ishtirokchining kafolat xati 1-SHAKL va maxsus bazadan olingan ma’lumotlar
5.	Korrupsiya ko‘rinishlariga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ariza	0-5	Tashkilotlar tomonidan ariza
6.	Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha qarzdorlikning mavjud emasligi to‘g‘risidagi tasdiqlangan ma’lumotlarni mavjudligi	0-5	Soliq organi tomonida taqdim qilingan solishtirma dalolatnoma yoki ma’lumotnoma

7.	Ishtirokchining hisobidagi qoldiq mablagʻlari toʻgʻrsida hizmat koʻrsatuvchi bank tomonidan berilgan tasdiqlangan maʼlumotnomani mavjudligi ( <i>Taklif berilayotgan sana holatiga</i> )	0-5	Bank maʼlumotnomasi
8.	Tanlov ishtirokchisi toʻgʻrisida umumiy maʼlumotlarni mavjudligi	0-5	2-SHAKL
9.	Tanlov ishtirokchisining oxirgi ikki yildagi yillik moliyaviy hisobotlarining mavjudligi	0-10	2 yillik moliyaviy hisobotlar (balans 1-sonli shakl , moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot Forma-2-sonli shakl, debitor va kreditor qarzarlar toʻgʻrisidagi maʼlumot
10.	Tanlash hujjatlarining texnik qismda koʻrsatilgan talablarga mos kelishi	0-3	4-SHAKL va unga tegishli ilova
11.	Doimiy ishlovchi xodimlari umumiy soni kamida 50 kishi boʻlishi	0-2	Tasdiqlangan xodimlar roʻyxati yuklanadi
12.	Korxonaning mavjud matbaa texnik bazasidagi mavjud uskunalarning ishlab chiqarilgan yili 3 yildan oshmagan boʻlishi kerak hamda: <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Soatiga 15000 varaq chop etish quvvatiga ega kamida 2 dona 5 rangli ofset matbaa uskunasini mavjudligi;</li> <li>✓ Soatiga 1500 yigʻma jildni yelimplash quvvatiga ega 2 dona matbaa yelimplash uskunasini mavjudligi;</li> <li>✓ 2 dona matbaa kesish uskunasini mavjudligi;</li> <li>✓ 2 dona A3 formatdagi laminatsiya matbaa uskunasini mavjudligi;</li> <li>✓ 1 dona qolip tayyorlash matbaa uskunasini mavjudligi</li> </ul>	0-10	3-SHAKL va fotolari
13.	Ishtirokchining mazkur buyurtmani bajarish uchun zarur xomashyo zaxirasi: <ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Matn uchun 84 bichimdagi ogʻirligi 80 gr/m<sup>2</sup> dan kam boʻlmagan ofset qogʻozi 15 tonna mavjudligi;</li> <li>✓ Muqova uchun ogʻirligi 200 gr/m<sup>2</sup> dan kam boʻlmagan silliqlangan</li> </ul>	0-10	3-SHAKL va fotolari

	(melovannaya) qog'oz 2 tonna mavjudligi; ✓ Yetarli miqdorda ranglar zaxirasi mavjudligi; ✓ Laminatsiya uchun A3 bichimdagi plyonka zaxirasini mavjudligi.		
14.	Tanlash hujjatlarida belgilangan 3-5 kalendar kundan ko'p bo'lmagan muddatda nashrning har bir sonini chop etib berish hamda O'zbekiston pochta "Xalqaro pochta" filiali jo'natmalar omboriga har bir sonning tayyor nusxalarini 1 kun muddatda yetkazib berishi	0-5	Ishtirokchining kafolat xati

## 2. Narx qismni baholash.

<b>T.r.</b>	<b>Mezon</b>	<b>Baholash</b>	<b>Ball</b>
1	Eng kam narx usulida	Ishtirokchilar orasidan boshlang'ich narxga nisbatan eng past narx taklif etgan ishtirokchi eng yuqori (20) ballni qo'lga kiritadi	0-20 ball

### **III bo‘lim. Texnik qismi**

## **“Moliyachi ma’lumotnomasi” bulletinining 2022-yil 1-12-sonlarini chop etish bo‘yicha**

### **TEXNIK TOPSHIRIG‘I**

1. Tanlash ishtirokchisi faqat bir marotaba taklif kiritishi mumkin.
2. “Moliyachi ma’lumotnomasi” bulletinining 2022-yil 1-12-sonlarini chop etish 1-jadvalda ko‘rsatilgan xizmatlarni o‘z ichiga oladi, chop etishda bichimi 60x84 1/8, matn rangi 4+4, matn uchun 80 gr/m<sup>2</sup> dan kam bo‘lmagan ofset qog‘ozi va PNL laminatsiya muqova rangi 4+4 hamda muqova uchun 200 gr/m<sup>2</sup> dan kam bo‘lmagan silliqlangan (melovannaya) qog‘ozidan foydalanilishi shart.
3. “Moliyachi ma’lumotnomasi” byulletenining 2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etish texnik tasnifi ushbu tanlash hujjatlarining ajralmas qismi texnik topshirig‘ining 1-jadvalida ko‘rsatilgan.
4. Yetkazib beriladigan mahsulotlar sifati amaldagi Davlat standarti talabiga va texnik shartlarda nazarda tutilgan me‘yorlarga javob berishi shart.
5. Bajariladigan ishlar to‘liq hajmda shartnomada belgilangan muddatda bajarilishi shart.
6. Hamma zarur xom-ashyo va materiallari Bajaruvchi tomonidan ta’minlanadi.
7. Ish davomida yoki qabul qilish-topshirish jarayonida aniqlangan kamchiliklar Bajaruvchi tomonidan o‘z hisobidan bartaraf etiladi.
8. Bajarilgan ishlar ikki tomonlama imzolangan topshirish-qabul qilish dalolatnoma asosida qabul qilinadi.



**“Moliyachi ma’lumotnomasi” byulletenining 2022-yil 1-12-sonlarini oyma-oy chop etish bo‘yicha  
TEXNIK TAVSIFI**

<b>T/r</b>	<b>Nashrning nomi</b>	<b>Nashr turi</b>	<b>Hajmi</b>	<b>Nashr nusxasi</b> (1-12 sonlar jami yillik 51600 nusxagacha, oyma-oy har soni 4300 nusxagacha)	<b>Muqova rangi, qog‘oz turi va muqovalash usuli</b>	<b>Matn rangi va qog‘oz turi</b>	<b>Bichimi</b>
1	“Moliyachi ma’lumotnomasi” “Справочник финансового работника”	byulleten	96 bet	51600	Rangi 4+4, PNL laminatsiya muqova, 200 gr/m <sup>2</sup> dan kam bo‘lmagan silliqlangan (melovannaya) qog‘oz, muqovalash yumshoq termokley	Rangi 4+4, 80 gr/m <sup>2</sup> dan kam bo‘lmagan ofset qog‘oz	60x84 1/8

**Ma’muriy xo‘jalik bo‘limi boshlig‘i  
(Komissiya kotibi)**

**N. Yuldashev**

## IV BO‘LIM. SHARTNOMA LOYIHASI

\_\_\_\_\_ - sonli SHARTNOMA

Toshkent sh.

“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2022-y.

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari hamda budget tashkilotlarining moliya-hisob bo‘linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash O‘quv markazi** (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb ataladi) nomidan direktori **I.G.Xamidova** Nizom asosida ish yurituvchi bir tomondan va ikkinchi tomondan \_\_\_\_\_ (keyingi o‘rinlarda “Bajaruvchi” deb ataladi) nomidan direktor \_\_\_\_\_. o‘z \_\_\_\_\_ ga asosan ish yurituvchi o‘rtasida ushbu shartnomani tuzdik.

### 1. Shartnoma predmeti

1.1. “Bajaruvchi” ushbu shartnomaga muvofiq “Buyurtmachi” ko‘rsatmasiga ko‘ra mazkur shartnomaning 2-bandida ko‘rsatilgan byulleten sonlarini: bichimlari 60x84 1/8, matn ranglari 4+4, matn uchun 80 gr/m<sup>2</sup> dan kam bo‘lmagan ofset qog‘ozi, PNL laminatsiya muqova, rangi 4+4, muqova uchun 200 gr/m<sup>2</sup> dan kam bo‘lmagan silliqlangan (melovанный) qog‘ozi hamda muqovalash yumshoq termokley ko‘rsatkichlar asosida chop etish majburiyatini oladi, “Buyurtmachi” esa bajarilgan ish uchun belgilangan miqdorda xaq to‘lashni o‘z zimmasiga oladi.

1.2. Nashr etilgan mahsulot Davlat standartlariga muvofiq bo‘lishi shart.

### 2. Shartnoma bahosi

<i>№</i>	<i>Nashr nomi</i>	<i>O‘l.birl.</i>	<i>Hajmi (bet)</i>	<i>Nashr nusxasi</i>	<i>1 nusxa nashrning QQS bilan narxi (so‘m)</i>	<i>QQS bilan umumiy summasi (so‘m)</i>
1						
2						
3						
4						
<b>JAMI</b>						

2.1. Shartnomaning umumiy summasi qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan

\_\_\_\_\_ (QQS bilan) so‘mni tashkil qiladi.

### 3. To‘lov shartlari

3.2. “Buyurtmachi” shartnomada ko‘rsatilgan narx bo‘yicha umumiy summaning 30%ini oldindan to‘laydi. Oldindan to‘langan summaga teng hajmdagi

ishlar bajarilgandan so'ng, qolgan 70% buyurtmaning bajarilgan qismi uchun shartnomada belgilangan narx bo'yicha hisob-faktura va dalolatnoma asosida qabul qilib olingan kundan 5 bank ish kuni ichida amalga oshirib boriladi.

3.3. Haq to'lash shakli Moliya vazirligi G'aznachiligi orqali "pul o'tkazish" yo'li bilan amalga oshiriladi. Shartnoma umumiy miqdorining 30% miqdorida oldindan to'lov G'aznachilikda ro'yxatdan o'tganidan keyin 10 bank kuni ichida amalga oshiriladi.

#### **4. Majburiyatlarni bajarish muddati**

4.1. "Bajaruvchi" ushbu shartnomaning 1.1-bandida belgilangan majburiyatlarni 30% to'lov amalga oshirilgandan so'ng nashrning har bir sonining elektron original-maket varianti topshirilgan kundan boshlab 3-5 kalendar kuni hisobida bajarishi shart.

4.2. Shartnoma 2022-yil 31-dekabrga qadar amalda bo'ladi.

#### **5. Tomonlar majburiyatlari**

##### **5.1. "Bajaruvchi" ning majburiyatlari:**

5.1.1. Tayyor mahsulotning shartnoma shartlariga mosligini nazoratdan o'tkazish maqsadida "Bajaruvchi" nashrning elektron original-maket asosida ichki matn qismi 80 gr/m<sup>2</sup> dan kam bo'lmagan ofset qog'ozi, muqova PNL laminatsiya, 200 gr/m<sup>2</sup> dan kam bo'lmagan silliqlangan (melovanniy) qog'ozi va muqovalash termokley bilan yelimlangan tayyor namuna (signal) nusxasini "Buyurtmachi"ga ko'rsatib uning roziligini olgandan keyin nashrning har bir soni uchun belgilangan tirajni tayyorlashga kirishadi. Nashrning namuna (signal) nusxasiga "Buyurtmachi" vakili imzo qo'yadi va muhr bilan tasdiqlaydi.

5.1.2. Tayyor mahsulotni "Buyurtmachi"ga ushbu shartnoma talablariga, davlat standartiga hamda boshqa amaldagi talablarga muvofiq holda belgilangan muddatda topshiradi.

5.1.3. Byulleten sonini chop etishga tayyorlash jarayonida natijaning salbiy bo'lishi mumkinligi yoki uning maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda topshirilgan kuni va vaqtdan 2 (ikki) soatlik muddatda "Buyurtmachi"ga yozma ravishda xabardor qilinib, nashr ishi to'xtatiladi va tegishli tuzatishlar kiritilgandan so'ng davom ettiriladi.

5.1.4. Nashr etish bo'yicha topshirig'idan yoki shartnomada belgilangan boshqa parametrlardan chekinish natijasida yuzaga kelgan kamchiliklarni "Bajaruvchi" o'z kuchi va o'z mablag'lari hisobidan bartaraf etadi.

5.1.5. "Bajaruvchi" majburiy yuboriladigan nusxalarni belgilangan qoidaga muvofiq (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida matbaa faoliyatini tartibga solish to'g'risida" 1998-yil 2-fevraldagi 52-son qarorining ilovasi asosida) tegishli idoralarga yuborishni o'z zimmasiga oladi. Majburiy nusxalar chop etilgan byulletenning har bir soni adadidan ro'yxati taqdim etilgan holda "Buyurtmachi" hisobiga ajratiladi.

5.1.6. “Bajaruvchi” nashr sonining har bir tayyor nusxalarini O‘zbekiston pochta “Xalqaro pochta” filialining jo‘natmalar omboriga 1 kun muddatda yetkazib beradi.

5.1.7. Narxning haqiqiy xarajatlardan kelib chiqqanligiga “Bajaruvchi” bevosita javob beradi.

5.1.8. “Bajaruvchi” tomonidan ruxsatsiz shartnomada belgilangan parametrlardan qo‘shimcha adadda chop etish yoki hajmini o‘zgartirish hamda chakana savdoga chiqarish taqiqlanadi.

## **5.2. “Buyurtmachi”ning majburiyatlari**

5.2.1. Nashrning har bir tayyor bo‘lgan son original-maketini elektron variantda adadi ko‘rsatilgan holda topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida topshiradi. Chop etish jarayonini kuzatib borish va nazorat qilish maqsadida o‘z vakilini matbaa korxonasiga yuboradi.

5.2.2. “Buyurtmachi” mazkur shartnoma shartlarida belgilangan xizmatlar uchun shartnomada ko‘rsatilgan muddatda to‘lovni amalga oshiradi.

5.2.3. Tayyor mahsulotni ushbu shartnomada nazarda tutilgan muddatda va tartibda qabul qilib oladi.

## **6. Tomonlarning javobgarligi**

6.1. “Bajaruvchi” shartnomada belgilangan byulleten sonlarini o‘z vaqtida yetkazib bermagan taqdirda, har bir kechiktirilgan kalendar kun uchun byulleten sonlarini chop etish umumiy bahosining 0,5% miqdorida jarima to‘laydi, lekin jarima miqdori umumiy qiymatning 50% dan oshib ketmasligi lozim.

6.2. “Buyurtmachi” o‘z vaqtida to‘lovlarni “Bajaruvchi” hisobraqamiga o‘tkazib bermagan taqdirda, har bir kechiktirilgan bank ish kuni uchun o‘tkazilmagan to‘lovlar bahosining 0,4% miqdorida jarima to‘laydi, lekin jarima miqdori o‘tkazilmagan to‘lovlar umumiy qiymatining 50% dan oshib ketmasligi lozim.

6.3. Shartnomaga rioya qilmagan tomon amaldagi qonunlarga ko‘ra yetkazilgan zararni qoplashni o‘z zimmasiga oladi.

6.4. Mahsulot Davlat standarti talablariga rioya qilinmay chop etilgan taqdirda “Buyurtmachi” ushbu shartnomada belgilangan qiymatni to‘lamasdan, mahsulotni qabul qilib olishdan bosh tortish huquqiga ega. Shu bilan birga “Bajaruvchi” tegishli standart va sifatga ega bo‘lmagan mahsulot qiymatining 20% miqdorida jarima to‘laydi.

6.5. Penya yoki jarima to‘lanishi tomonlar majburiyatlarini bajarish yoki huquq buzilishlarini bartaraf qilishdan ozod qilmaydi.

## **7. Fors-major holatlari**

7.1. Tomonlardan hech biri boshqa tomonning oldida shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarini tomonlarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlarda bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydi. Bunday hollar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar 2 (ikki) kunlik muddat ichida yozma xabardor qilinishi shart.

## **8. Nizolarni hal qilish tartibi**

8.1. Tomonlar o'rtasida shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda paydo bo'ladigan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklar o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

8.2. Kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilinmagan taqdirda, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'riladi.

## **9. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish tartibi**

9.1. Shartnomaga kiritiladigan har qanday qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma ravishda rasmiylashtirilib, har ikkala tomon imzolagan hollardagina qonuniy kuchga ega bo'ladi.

9.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoxud O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha yetkazilgan zararlarni qoplash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

9.3. Shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon bu haqda ikkinchi tomonga ikki oy oldin yozma xabarnoma yuboradi.

## **10. Boshqa shartlar**

10.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab qonuniy kuchga kirgan hisoblanadi.

10.2. Shartnoma bir xil kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilgan.

## **11. Tomonlarning yuridik manzili va to'lov ma'lumotlari**

«Buyurtmachi»

«Bajaruvchi»

O'zbekiston Respublikasi

Moliya vazirligi huzuridagi moliya organlari hamda budget  
tashkilotlarining moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini  
tayyorlash va qayta tayyorlash O'quv markazi

Toshkent sh. Mirzo Ulug'bek tumani, Darxontepa 7

Telefon: 239-19-18, Indeks: 100052

Sh/x: 400110860262667096200092001

MFO 00014 STIR 300529638 OKED 85590:

Moliya vazirligi G'aznachiligi

X/r: 23402000300100001010

XKKM Markaziy bank Toshkent sh.,

Bosh boshqarmasi

MFO: 00014, STIR: 201122919,

Direktor \_\_\_\_\_ I. Xamidova

Bosh buxgalter \_\_\_\_\_ S. Mirzayev

**Xarid komissiyasi raisi**

Direktorning talim jarayonini  
takomillashtirish va innovatsion talim  
texnologiyalarini rivojlantirish  
masalalari bo'yicha o'rinbosari

  
\_\_\_\_\_.J. Hamidullayev

**Xarid komissiyasi a'zolari,**

O'quv-metodik bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari

  
\_\_\_\_\_.A. Akramov.

Kafedra mudiri

  
\_\_\_\_\_.R. Bakiyeva.


Tahririyat bo'limi boshlig'i

  
\_\_\_\_\_.B. Atadjanov.


Kafedra mudiri

  
\_\_\_\_\_.Sh. Mirzaxidova.

Kafedra mudiri

  
\_\_\_\_\_.Sh. Qurbonov.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari  
bo'yicha mutaxassis

  
\_\_\_\_\_.A. Babayev.

**Xarid komissiyasi kotibi:**

  
\_\_\_\_\_.N. Yuldashev